

SO‘Z VA IBORALAR SEMANTIZATSIYASI JARAYONI: LUG‘AVIY BIRLIKLAR TAHLILI HAMDA KONTEKSTUAL MA‘NONI ANIQLASH USULLARI

Karimov Rustam Abdurasulovich

Buxoro davlat universiteti Fakultetlararo chet tillar kafedrası dotsenti

ORCID: 0009-0000-0385-5256

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek–ingliz parallel korpusida so‘z va iboralarni semantizatsiya qilish jarayoni, lug‘aviy birliklarning kontekstual ma‘nosini aniqlash hamda tarjima ekvivalentligini belgilash masalalari tadqiq etiladi. Tadqiqotda komponent, distribusional, chastotali, kognitiv-semantik va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, mikrokontekst va makrokontekst asosida ko‘p ma‘noli so‘zlar, frazeologik birliklar, metaforalar va milliy-madaniy realiyalarning semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Parallel korpus ma‘lumotlari asosida to‘liq, qisman va funksional ekvivalentlikni aniqlash hamda tarjima jarayonida semantik transformatsiyalarni belgilash mexanizmlari ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari korpusga asoslangan semantizatsiya o‘zbek–ingliz tarjimasida ma‘no aniqligi va ekvivalentlikni oshirishda samarali metodologik vosita ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek–ingliz parallel korpusi, semantizatsiya, lug‘aviy birlik, kontekstual ma‘no, mikrokontekst, makrokontekst, semantik ekvivalentlik, tarjima, frazeologizm, polisemantik birlik, korpus lingvistikasi.

ПРОЦЕСС СЕМАНТИЗАЦИИ СЛОВ И ФРАЗ: АНАЛИЗ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ И МЕТОДЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ КОНТЕКСТУАЛЬНОГО ЗНАЧЕНИЯ

Каримов Рустам Абдурасулович

Бухарский государственный университет

Доцент кафедры межфакультетских иностранных языков

Аннотация: В статье исследуется процесс семантизации слов и словосочетаний в узбекско-английском параллельном корпусе, а также рассматриваются вопросы определения контекстуального значения лексических единиц и установления переводческой эквивалентности. Особое внимание уделяется компонентному, дистрибутивному, частотному, когнитивно-семантическому и контекстуальному методам анализа. Рассматривается роль микро- и макроконтекста в выявлении значений полисемантических слов, фразеологических единиц, метафор и национально-культурных реалий. На материале параллельного корпуса определяются уровни полной, частичной и функциональной эквивалентности, а также способы передачи семантических преобразований в процессе перевода. Результаты исследования показывают, что корпусно-ориентированная семантизация является эффективным методологическим инструментом повышения точности значения и эквивалентности при узбекско-английском переводе.

Ключевые слова: узбекско-английский параллельный корпус, семантизация, лексическая единица, контекстуальное значение, микроконтекст, макроконтекст, семантическая эквивалентность, перевод, фразеологизм, полисемия, корпусная лингвистика.

THE PROCESS OF SEMANTIZATION OF WORDS AND PHRASES: ANALYSIS OF LEXICAL UNITS AND METHODS FOR DETERMINING CONTEXTUAL MEANING

Karimov Rustam Abdurasulovich

Bukhara State University Interfaculty department of Foreign Languages

Annotation: This article examines the process of semanticization of words and phrases in an Uzbek-English parallel corpus, with particular attention to identifying contextual meanings of lexical units and determining translation equivalence. The study considers the application of componential, distributional, frequency-based, cognitive-semantic, and contextual analysis methods. It also analyzes the role of microcontext and macrocontext in interpreting polysemous words, phraseological units, metaphors, and culture-specific realia. Based on parallel corpus data, the study identifies different levels of translation equivalence, including full, partial, and functional equivalence, and examines semantic transformations occurring in the translation process. The findings demonstrate that corpus-based semanticization provides an effective methodological framework for improving semantic accuracy and equivalence in Uzbek-English translation.

Keywords: Uzbek-English parallel corpus, semanticization, lexical unit, contextual meaning, microcontext, macrocontext, semantic equivalence, translation, phraseological unit, polysemy, corpus linguistics.

Kirish. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda parallel korpuslardan foydalanish so'z va iboralar semantikasini aniqlashda eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Turli tillardagi mos matnlar o'rtasidagi semantik munosabatlarni bevosita empirik dalillar asosida o'rganish tilning mazmuniy tizimini chuqurroq anglash imkonini beradi. Ayniqsa, tipologik jihatdan farqli bo'lgan o'zbek va ingliz tillari o'rtasida ma'no ko'chish jarayonlari, ekvivalentlik darajalari hamda madaniy tafakkurga xos semantik farqlarni aniqlash parallel korpusning muhim vazifalaridan biridir.

O'zbek va ingliz tillaridagi lug'aviy birliklar, iboralar hamda frazeologik konstruksiyalarning tarjima jarayonida qanday semantik o'zgarishga uchrashi, ularning kontekstga bog'liq holda qanday yangi ma'no hosil qilishi masalasi ko'p hollarda ta'rixiy, madaniy, kognitiv va uslubiy omillar bilan chambarchas bog'liq. Shu bois semantizatsiya jarayoni nafaqat alohida so'zning ma'nosini izohlashni, balki uning kontekstual vazifasi, nutq sharoitidagi pragmatik yuklamasi, mental model va konseptlar tarmog'idagi o'rnini aniqlashni ham talab etadi.

O'zbek–ingliz parallel korpusida semantizatsiya qilishning nazariy asoslari, metodologik yondashuvlari, leksik va frazeologik birliklar tahlilining o'ziga xos xususiyatlari, kontekstual ma'no aniqlashning ilmiy-amaliy mexanizmlari batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur bobda korpus asosida aniqlangan ekvivalentlik darajalari, semantik transformatsiyalar, idiomatik birliklarning tarjima strategiyalari hamda madaniy realiyalar bilan bog'liq semantik muammolar ilmiy asoslangan holda yoritiladi. Mazkur bob o'zbek va ingliz tillari o'rtasida semantik moslikni aniqlashda parallel korpusning imkoniyatlarini ochib berish bilan birga, tarjimashunoslik, kognitiv lingvistika hamda amaliy korpus lingvistikasiga oid muhim nazariy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi. Bobning har bir bo'limi semantik jarayonlarning muayyan aspektlarini yoritib, tadqiqotning keyingi bosqichlari uchun ilmiy-metodik asos vazifasini bajaradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning metodologiyasi o'zbek–ingliz parallel korpusida so'z va iboralar semantizatsiyasini chuqur ilmiy tahlil qilishga yo'naltirilgan bo'lib, korpus lingvistikasining zamonaviy nazariyalari, kognitiv semantika, tarjimashunoslik nazariyalari va kompyuter lingvistikasi metodlari asosida ishlab chiqiladi. Metodologiyaning asosiy vazifasi parallel matnlardagi leksik birliklarning ma'nosini kontekstual muhitda aniqlash, ularning tarjima ekvivalentlik darajasini baholash hamda semantik transformatsiyalarni tavsiflashdan iborat.

Empirik materialni tanlash tamoyillari. Birinchi bosqichda tadqiqot uchun sifatli, muvozanatlangan parallel korpusni shakllantirish talab etiladi. Materialni tanlashda quyidagi mezonlarni qo'llash maqsadga muvofiq. Mazkur korpus quyidagi janrlar asosida tanlandi:

- 1) badiiy adabiyot (konnotativ ma'noli so'zlarni o'rganish uchun);
- 2) ilmiy va rasmiy-uslubiy matnlar (terminologik semantika uchun);
- 3) publitsistika (zamonaviy nutq elementlarini aniqlash uchun);
- 4) og'zaki nutq transkriptlari (pragmatik semantika uchun).

Bu metodologiya D.Biber tomonidan ilgari surilgan "multidimensional analysis" tamoyiliga asoslanadi.

Tarjima sifatini tekshirish talablari. Korpusga faqat professional tarjimon tomonidan yaratilgan matnlar kiritildi. Tarjimada: mazmuniy adekvatlik, uslubiy moslik, sintaktik sodiqlik kabi mezonlarga amal qilinishi talab etiladi. Bu yondashuv Catford va Vinay, Darbelnet tomonidan taklif etilgan tarjima ekvivalentligi nazariyalariga asoslanadi.

Parallel juftliklarni moslashtirish (alignment) metodlari. Semantizatsiyada segmentlararo moslikni aniqlash muhim bosqich bo'lib, tadqiqotda quyidagi ikki darajali usul qo'llandi:

1) avtomatik moslashtirish. Korpus vositalaridan gap bo'yicha moslashtirish (1), ibora (birikma) bo'yicha moslashtirish (2), token bo'yicha moslashtirish (3) algoritmlari yordamida dastlabki moslik yaratiladi. Algoritmlar Gale, Church tomonidan ishlab chiqilgan statistik moslashtirish mexanizmlariga tayandi.

2) qo'lda lingvistik ekspertiza. O'zbek tilining agglutinatив tuzilishi, ko'p ma'nolilikning yuqoriligi, metaforik birliklarning ommaviyligi sababli avtomatik moslik to'liq ishonchli hisoblanmaydi. Shu sababli moslik morfologik, sintaktik, semantik nuqtayi nazardan mutaxassis tomonidan qayta tekshirildi. Bu manual verification korpus lingvistikasi metodologiyasida McEnery, Hardie tomonidan tavsiya qilingan asosiy bosqichlardan biridir.

Leksik-semantik tahlil metodlari. So'z va iboralar ma'nosini aniqlashda bir nechta ilmiy yondashuvlar uyg'unlashtirilishi mumkin:

1) komponent (semik) tahlil metodi semiotika nazariyasiga asoslanib, so'zning denotativ semalari, konnotativ ma'nosi, uslubiy xususiyatlari aniqlandi. O'zbek tili birliklaridagi semalar ingliz tilidagi ekvivalentlari bilan qiyosiy tahlil qilinadi;

2) distributiv tahlil – "You shall know a word by the company it keeps" tamoyiliga tayangan holda kollokatsiyalar, so'z birikmalari, mos keluvchi sintaktik konstruksiyalar aniqlanadi. Bu birliklar semantik maydonni aniqlashda muhim rol o'ynaydi;

3) chastotali tahlil asosida korpus bo'yicha so'zlarning takrorlanish darajasi statistik usullarda o'rganiladi. Bu ma'nolarning markaziy va periferik qatlamlarini ajratishga imkon beradi;

4) kognitiv-semantik tahlil Lakoff, Johnsonlarning (1980) kognitiv metafora nazariyasiga tayanib, birliklarning konseptual xaritasi, metaforik modeli, mental strukturalari tahlil qilinadi. Ayniqsa, o'zbek tilidagi obrazli iboralar inglizcha kognitiv modellarga moslashtiriladi.

Metod turi	Maqsad	Afzalligi	Cheklovi
Komponent tahlil	Soʻz semalarini aniqlash	Semantik tarkibni aniq ajratadi	Koʻp maʼnolilikda murakkablashadi
Distribusional tahlil	Kollokatsiyalarni aniqlash	Korpusga tayanadi, empirik	Kam uchraydigan birliklar tahlilida zaif
Kognitiv-semantik tahlil	Obrazlilik va konseptlarni tahlil	Metafora va konseptlarni ochadi	Subyektiv talqin ehtimoli bor
Chastotali tahlil	Markaziy/periferik maʼnoni aniqlash	Statistik ishonchlilik	Faqat sonlarga asoslanadi
Kontekstual tahlil	Maʼnoning vaziyatga bogʻliqligini aniqlash	Polisemiyanı bartaraf qiladi	Keng matn talab qiladi

Semantizatsiya jarayonida qoʻllaniladigan metodlar qiyosiy jadvali

Kontekstual maʼnoni aniqlash metodlari. Kontekst asosida semantik tahlil uch darajada amalga oshiriladi. Mikrokontekst tahlilida soʻzning yon-atrofıdagi birliklar asosidagi maʼnosi aniqlanadi: bu koʻp maʼnolilik holatlarini aniqlashda muhim. Mezokontekst tahlilida gap va sintaktik struktura darajasidagi maʼno Hallidayning funksional grammatikasi asosida tahlil qilinadi. Makrokontekst tahlili bosqichida matnning umumiy gʻoyaviy yoʻnalishi, muallif idiolekti, kommunikativ vaziyat, pragmatik maqsad aniqlanadi. Bu tarjimada funksional ekvivalent topishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekvivalentlik darajasini aniqlash mezonlari. Tadqiqot semantik ekvivalentlikni quyidagi ilmiy tasnif asosida oʻrganadi: toʻliq leksik ekvivalent; qisman ekvivalent; funksional ekvivalent; transkripsion ekvivalent; noekvivalent birliklar (realiya). Noekvivalent birliklar uchun Vinay, Darbelnet tavsiya qilgan deskriptiv tarjima, semantik kengaytirish, funksional almashtirish, kompensatsiya kabi metodlar qoʻllanadi.

Daraja	Taʼrif	Oʻzbekcha misol	Inglizcha ekvivalenti	Izoh
Toʻliq ekvivalent	Denotativ va konnotativ moslik	<i>kitob</i>	<i>book</i>	Neytral birlikni koʻrsatadi
Qisman ekvivalent	Baʼzi konnotativ farqlar mavjud	<i>sergak</i>	<i>alert / vigilant</i>	Kontekstga bogʻliq
Funksional ekvivalent	Maʼnodan koʻra funksiya muhim	<i>hashar</i>	<i>community voluntary work</i>	Madaniy realiyani ifoda etadi
Deskriptiv ekvivalent	Atama orqali tushuntiriladi	<i>oq yoʻl</i>	<i>May your journey be blessed</i>	Pragmatik vazifa bajaradi
Transkripsion ekvivalent	Faqat nom shakli tarjima qilinadi	<i>sumalak</i>	<i>sumalak</i>	Realialarni aniqlaydi
Kompensatsiya	Yoʻqolgan maʼno boshqa joyda beriladi	<i>koʻngil</i>	<i>heart/spirit</i>	Ingliz tilida bevosita mos kelmaydi

Semantik ekvivalentlik darajalari

Avtomatlashtirilgan semantik klasterlash va ekspert tahlili uygʻunligi. Zamonaviy kompyuter lingvistikasining usullari bilan quyidagi tahlillar amalga oshiriladi:

- 1) word2vec, fastText asosidagi semantik oʻxshashlik modellari;
- 2) k-means va hierarchical clustering orqali semantik guruhlash;
- 3) Pointwise Mutual Information asosida kollokatsiya statistikasi.

Biroq avtomatik natijalar o'zbek tilining murakkab morfologiyasi sababli qo'lda tekshiriladi, ekspert xulosasi bilan boyitiladi, kerak bo'lganda semantik qayta guruhlash amalga oshiriladi. Bu ikki bosqichli metodologik yondashuv tahlilning yuqori ishonchliligini ta'minlaydi.

Yuqorida keltirilgan mezonlar asosida korpus tahlili amalga oshiriladi.

Ko'p ma'noli fe'l tahlili: "olmoq". Misol: U kitobni qo'lidan qo'ydi / Parallel inglizcha segment: He/She put the book down. Semantik tahlil shuni ko'rsatadiki, "qo'ymoq" polisemantik fe'l bo'lib, u tarjimada fizik jihatdan qo'yish, joylashtirish ma'nosida place, set, put down, lay, position, deposit, leave (masalan, "stolga qo'yib ketmoq"); biror narsa qo'shish, kiritish, o'rnatish ma'nosida install (o'rnatmoq); apply (qo'llamoq, surmoq); attach (biriktirmoq); add (qo'shmoq); maqsad, cheklov, shart qo'yish ma'nosida set (set a goal, set a rule); establish, impose (impose a condition / impose a limit); pul, vaqt, kuch qo'yish ma'nosida (resurs ajratish) invest, allocate, commit, contribute leksemalar bilan ifodalanadi. Korpusda olmoq + qo'lidan / ustidan / yonidan kabi kollokatsiya hosil qiladi. Dominant ma'nosi: put / put down. Aytish mumkinki, mazkur misolda "put" leksemasi to'liq kontekstual ekvivalent bo'la oladi, ya'ni "qo'ydi" so'zining to'liq ekvivalenti: put / put down.

Muhokama. Konnotativ birlik tahlili: "ko'ngli to'q". Uning ko'ngli to'q edi. Inglizcha parallel segment: He was confident. Yana bir tabiiy variant: His mind was at ease. Semantik tahlil shuni ko'rsatadiki, "ko'ngli to'q" – madaniy-tafakkurga xos obrazli birlik. Ingliz tilida to'g'ri leksik ekvivalent yo'q. Tarjimada funksional + konnotativ kompensatsiya strategiyasi ishlatilgan. Natijada, funksional ekvivalentlik talab qilingan tarjimaga erishilgan.

Idiomatik birlik (ibora) tahlili: "ko'zim tushdi". Bu joyga ko'zim tushdi. Parallel inglizcha segment: I noticed this place. Semantik tahlil ma'lum bo'ladiki, ko'zim tushdi – ibora, u ko'rish, e'tibor berish ma'nosini bildiradi. Inglizcha funksional ekvivalenti: notice. So'zma-so'z tarjima qilinganda ("my eye fell on") ingliz tilida noaniq ma'no keltirib chiqaradi. Xulosa shuki, idiomatik iboralar ko'pincha so'zma-so'z tarjima qilinmaydi.

Firthning distribusional tamoyili "You shall know a word by the company it keeps" degan g'oya semantizatsiyaning korpusga asoslangan yondashuviga zamin yaratdi. Bu tamoyil o'zbek–ingliz parallel korpusida kollokatsiyalar, qo'llanish chastotasi va kontekstual bog'lanishlar orqali ma'noning aniqlanishida amal qiladi. Sinclair tilni sun'iy misollardan emas, balki real matnlar asosida o'rganishni taklif qiladi. Uning "unit of meaning" konsepsiyasi parallel korpusdagi semantik birliklarni tahlil qilishda muhim o'rin egallaydi. McEnery va Hardie tomonidan ishlab chiqilgan korpus metodlari korpus yaratish, ma'lumotlarni segmentlash, moslashtirish, statistik tahlil kabi texnologik jarayonlarni batafsil bayon qilgan. Mazkur tamoyillar o'zbek–ingliz parallel korpusida alignment, annotatsiya va semantik tahlilni to'g'ri tashkil qilishga yordam beradi. Tarjimashunoslik va ekvivalentlik nazariyalari parallel korpuslarda semantizatsiya tarjima ekvivalentlik masalalari bilan bog'liq. Ushbu yo'nalishda quyidagi olimlarning ishlari alohida ahamiyatga ega. J.Catford ekvivalentlikni til tizimidagi birliklar o'rtasidagi moslik sifatida belgilab, leksik, grammatik va tekstual ekvivalentlik tushunchalarini taklif qilgan. O'zbek–ingliz parallel korpusida aynan shu tasnif eng qulay ishlatiladigan tizimlardan biridir. M.Baker turli tillardagi ma'no transferi kontekstual, pragmatik va kognitiv omillarga tayanishini ta'kidlaydi. Uning tasnifi o'zbek tilidagi realiyalar, frazeologik birliklar va konnotativ ma'noli so'zlarni ingliz tilida funksional tarzda ifodalash mexanizmini ochib beradi. Vinay va Darbelnetning tarjima strategiyalari (kalka, badiiy tarjima, transpozitsiya, modifikatsiya, ekvivalent, adaptatsiya) parallel korpusda semantik transformatsiyalarni aniqlashda asosiy metod hisoblanadi.

Semantika bo'yicha mumtoz va zamonaviy tadqiqotlar ham diqqatga sazovor. Semantik tahlilning nazariy bazasi bir qancha mumtoz yo'nalishlarga tayangan. Nida, Lehrer tadqiqotlarida

komponent tahlil soʻz maʼnosining tarkibiy qismlarini (sema) aniqlash tamoyillarini taklif qilgan. Bu yondashuv, ayniqsa, oʻzbek tilidagi koʻp maʼnoli feʼllar (olmoq, qoʻymoq, kelmoq) ning inglizcha ekvivalentlarini aniqlashda samarali. Konnotativ maʼno tadqiqotlarida yana bir boshqa jihat kuzatiladi. Konnotatsiya, ekspressivlik va uslubiy xususiyatlarni oʻrganish parallel korpusda “koʻngil”, “oq yoʻl”, “sergak” kabi milliy semantika bilan boy soʻzlarning tarjimasini toʻgʻri talqin qilish imkonini beradi. Apresyanning sinonim va antonim maydonlar nazariyasi ham eʼtiborga molik. Oʻzbek va ingliz tillarida sinonimik qatorlar koʻpligi sababli bu nazariya semantik maydonlararo moslikni aniqlashda yordam beradi.

Kognitiv lingvistika ham oʻzbek-ingliz parallel korpusida semantizatsiya jarayonini tadqiq etishda muhim nazariy asos boʻlib xizmat qiladi. Ushbu yoʻnalish maʼnoning shakllanishini faqat til tizimi bilan emas, balki insonning konseptual tasavvuri va idrok jarayonlari bilan izohlaydi. Shuning uchun ham parallel korpusdagi birliklarning semantik ekvivalentligini aniqlashda kognitiv modellar, konseptuallashtirish jarayonlari hamda madaniy-ijtimoiy bilimlar majmuyi alohida ahamiyat kasb etadi. Lakoff va Johnson tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasi til birliklarining mazmuni ortida maʼlum konseptual xaritalar mavjudligini koʻrsatadi. “Metaphors We Live By” asarida metaforik tizimlar inson tafakkuri va dunyoqarashini shakllantiruvchi kognitiv model sifatida talqin etiladi. Ushbu nazariya, ayniqsa, parallel korpuslar uchun dolzarb, chunki turli tillarda mazmunning metaforik konseptualizatsiyasi sezilarli darajada farqlanishi mumkin. Masalan, oʻzbek tilida “koʻngil” emotsiya va ruhiy holat markazi sifatida qaralsa, ingliz tilida ushbu konsept koʻproq “heart”, ayrim hollarda “mind” orqali ifodalanadi. Bu farq ikki til oʻrtasida ekvivalentlikni aniqlash jarayonida muayyan semantik tafovutlarni yuzaga keltiradi.

R.Langakerning kognitiv grammatika nazariyasiga koʻra, maʼno, shakl va konseptual struktura tilning ajralmas, bir-biriga uzviy bogʻlangan komponentlari hisoblanadi. Ushbu yondashuv til birliklarining sintaktik yoki morfologik shaklini emas, balki ular ortida yotgan konseptual tuzilmani aniqlashga yoʻnaltirilgan. Oʻzbek va ingliz tillarining parallel korpusida uchraydigan frazeologik birliklar, jumladan, “koʻzim tushdi”, “quloq solmoq”, “yuragi orqaga tortdi” kabi frazeologik konstruksiyalar aynan kognitiv grammatik yondashuv yordamida talqin etilganda ularning semantik, konseptual asoslari va ekvivalentlarini aniqlash osonlashadi.

Demak, kognitiv lingvistikaning konseptual modellar va metaforik tizimlarga oid qarashlari oʻzbek-ingliz parallel korpusida semantik ekvivalentlik, konseptual tafovut va tarjima jarayonidagi maʼno oʻzgarishlarini aniqlashda samarali nazariy-metodologik asos yaratadi.

Oʻzbek tilshunosligi va tarjimashunosligi boʻyicha mahalliy tadqiqotlar ham diqqatimizdan chetda qolmaydi. Soʻnggi yillarda oʻzbek tilida korpus lingvistikasi va tarjima nazariyasi boʻyicha ilmiy izlanishlar faollashgan. Xususan, oʻzbek tili korpuslari yaratish, frazeologizmlarning tarjima strategiyalari boʻyicha tadqiqotlar, oʻzbek-ingliz tilidagi semantik moslikning struktural tahlillari, milliy realiyalar tarjimasida ekvivalentlik masalalari mazkur dissertatsiya mavzusiga bevosita asos boʻlayotgan yoʻnalishlardir.

Mazkur bobning tahlil metodologiyasini belgilab olishda semantik tahlilning kompyuter texnologiyalari asosidagi yondashuvlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Soʻnggi yillarda semantik tahlil sunʼiy intellekt va semantik klasterlash texnologiyalari bilan boyidi. Jumladan, word2vec, fastText – semantik yaqinlikni oʻlchash, ekvivalent qidirish; BERT, multilingual modellar – kontekstga asoslangan semantik talqinlar; k-means va iyerarxik klasterlash – semantik guruhlash; PMI asosidagi kollokatsiya tahlili – koʻp maʼnolilikni aniqlash shu kabi tadqiq usullariga kiradi. Bu texnologiyalar oʻzbek-ingliz parallel korpusida semantik moslikni aniqlashni yangi bosqichga olib chiqadi.

Adabiyotlar tahlili koʻrsatadiki, semantizatsiya jarayoni korpus lingvistikasining asosiy

metodlariga tayanadi. O'zbek va ingliz tillari o'rtasidagi tipologik farqlar tarjima ekvivalentligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Kognitiv yondashuvlar milliy-madaniy konseptlarni aniq va to'g'ri talqin qilishga zamin yaratadi. Zamonaviy kompyuter modellaridan foydalanish semantik tahlilning aniqligini oshiradi.

Mikrokontekstda semantizatsiya: o'zbek–ingliz parallel korpusi misolida.

Mikrokontekst – bu so'z yoki iboraning qurshovidagi til birliklari, ya'ni bir gap doirasida yoki gapning kichik sintaktik bo'laklaridagi semantik muhitni anglatadi. Mikrokontekstda semantizatsiya leksik birlikning ayni bir nutq bo'lagi ichidagi ma'nosini aniqlashga qaratilgan bo'lib, polisemantik so'zlar, affiksli shakllar, fe'l-konstruksiyalar va yonma-yon keluvchi so'zlar (birikuvchilar) orqali shakllanadi. O'zbek-ingliz parallel korpusida mikrokontekst asosida semantizatsiya, ayniqsa, ko'p ma'noli fe'llar, funksional so'zlar, majoziy iboralar va kollokatsiyalangan birliklarni tarjima qilishda muhim rol o'ynaydi.

Mikrokontekst so'zning aniq ma'nosini ajratishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ko'p ma'noli so'zlar mikrokontekstga qarab turlicha tarjima qilinadi. Ingliz tilida bunday hollarda alohida leksik birliklar qo'llanadi. Masalan, olmoq fe'li korpusda quyidagi mikrokontekstlarda uchraydi: kitobni olmoq – take a book; pul olmoq – receive money; odob olmoq – learn manners; dorini olmoq – take medicine; ish olmoq – accept a job. Ma'lum bir birlik atrofidagi so'zlar (pul, dori, kitob, odob) – sema aniqlovchi mikrokontekst sifatida ishlaydi. Korpusdan quyidagi misolni ko'rib chiqamiz: U undan pul oldi // He received money from him.

Mikrokontekst kollokatsiyani aniq ko'rsatadi. Kollokatsiyalar semantik moslikning aniq ko'rsatkichidir. Masalan: qat'iy qaror birikmasini olamiz. O'zbekcha: U qat'iy qaror qabul qildi. Inglizcha: He made a firm decision.

Bu yerda “qat'iy” so'zi firm, strict yoki rigid sifatida tarjima qilinishi mumkin. Mikrokontekst uni decision bilan kelayotganini ko'rsatadi. Tahlillardan ma'lum bo'ladiki, to'g'ri variant firm.

Mikrokontekst so'zning grammatik funksiyasi orqali ma'no anglatadi. O'zbek tilidagi qo'shimchalar ko'pincha fe'lining semantik rolini bildiradi. Masalan: ko'rib turibman. Men uning eshikka yaqin kelayotganini ko'rib turibman. // I see him approaching the door. Mikrokontekst (yaqin kelayotganini) see fe'lini vizual idrok ma'nosida ishlatilganini ko'rsatadi.

Mikrokontekst turg'un ibora va metaforalar ma'nosini aniqlaydi. Ko'pincha iboralarni so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi; mikrokontekst ularning vazifasi va emotsional yukini ochadi. Masalan: ko'zim tushdi. O'zbek tilidagi mazkur iboraning ikki asosiy ma'nosi bor: 1) ko'rib qoldim; 2) yoqib qoldi (kontekstga qarab). Bu kitobga ko'zim tushdi // This book caught my eye. Mazkur tarjimada metaforik, yoqib qolish ohangi bor. Yoki “Yo'lda uning mashinasiga ko'zim tushdi” // “I noticed his car on the road.” Mazkur kontekstda oddiy ko'rish ma'nosi ifodalangan. Mikrokontekst bu farqni ochiq ko'rsatadi.

Shuningdek, mikrokontekst pragmatik ma'noni belgilab beradi. O'zbek tilida ko'p so'zlar yumshatish, ehtiyotkorlik, shubha yoki hurmat bildiradi. Inglizchaga tarjimada bular mikrokontekst orqali aniqlanadi. Misol: shekilli. U bugun kelmaydi shekilli // It seems he won't come today. Bu o'rinda shekilli – seems, probably, I suppose kabi birliklar bilan tarjima qilinishi mumkin. Qaysi biri ishlatilishi gap ohangiga bog'liq.

Bundan tashqari, mikrokontekst ko'p ma'noli sifatlarning to'g'ri ekvivalentini belgilaydi. Misol: og'ir. (1) og'ir yuk – heavy load; (2) og'ir suhbat – serious conversation; (3) og'ir odam – difficult person; (4) og'ir ish – hard work. Mikrokontekst bu ma'nolarni aniq ajratib beradi. Shu so'zlardan qaysi birini qo'llashni ko'rsatadi.

“qo'l uzatmoq” frazeologik birligini “U do'stiga yordam qo'lini uzatdi” va “He reached out to help his friend” gaplarida kuzatamiz: yordam → reached out to help birliklari mikrokontekstda

kuzatiladi. Mikrokontekst tahlilidan mazkur juftlikning to'g'ri ekanligi anglashiladi.

Mikrokontekstga asoslangan semantizatsiya mexanizmlari bo'lib, o'zbek–ingliz parallel korpusida mikrokontekst uch asosiy mexanizm orqali ishlaydi:

1. Kollokatsion mikrokontekst – yonma-yon keluvchi so'zlar asosiy semantik signalni beradi.
2. Grammatik mikrokontekst – qo'shimcha, aspekt, kelishik, predikativ shakl semantik rolni aniqlaydi.
3. Pragmatik mikrokontekst – gap ohangi, nutq maqsadi, modal birliklar ma'no yo'nalishini belgilaydi.

Bu mexanizmlar tarjima jarayonida to'liq, qisman yoki funksional ekvivalent tanlashga yordam beradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mikrokontekst o'zbek–ingliz parallel korpusida polisemiyaning aniqlash, to'g'ri ekvivalent tanlash, kollokatsiyaning qayta tiklash, iboraviy birliklarni to'g'ri talqin qilish, sifat va fe'llarning kontekstual ma'nosini topish uchun hal qiluvchi omildir. Mikro va makrokontekstning uyg'un tahlili esa mazmunning to'liq semantik xaritasini yaratadi.

Makrokontekstda semantizatsiya: o'zbek–ingliz parallel korpusi misolida. Makrokontekst – bu matnning keng ko'lamdagi mazmuniy maydoni, ya'ni gaplar ketma-ketligi, paragraf, bo'lim yoki butun matn doirasidagi umumiy g'oya, muallif niyati, pragmatik maqsadlar va kompozitsion qurilish asosida yuzaga keladigan kontekst turidir. Makrokontekst so'z, ibora yoki frazeologizmlarning ma'nosini aniqlashda eng yuqori semantik qatlam bo'lib, ko'pincha, aynan shu daraja ma'noning to'g'ri talqin qilinishini ta'minlaydi. O'zbek–ingliz parallel korpusida makrokontekst asosida semantizatsiya qilish ayrim holatlarda juda zarur bo'ladi. Quyida shu haqida fikr yuritiladi.

Polisemantik so'zlarning to'g'ri tarjima ekvivalentini topishda makrokontekstning o'rni beqiyos. O'zbek tilida ko'p ma'noli birliklar juda ko'p. Ingliz tilida esa ularning ma'nosi odatda alohida leksik birliklar orqali ifodalanadi.

Masalan: “yo'l” so'zi. U hayot yo'lida ko'plab sinovlarni boshidan kechirdi. Bu yerda “yo'l” so'zining fizik yo'l ma'nosi emas, balki hayot yo'li, taqdir yo'li ma'nosi nazarda tutilgan. Inglizcha parallel segmenti quyidagicha: He faced many challenges on his life path. Yoki ko'proq tabiiy variant: He faced many challenges throughout his life. Bu tarjima makrokontekst asosida aniqlanadi, chunki alohida gapda “hayot yo'li” so'zma-so'z aytilmagan.

Milliy-madaniy realiyalarni anglashda makrokontekstning roli ahamiyatli. O'zbek tilidagi milliy tushunchalar ko'pincha ingliz tilida bevosita ekvivalentga ega emas. Bunday hollarda keng kontekst ushbu birlikning matndagi funksiyasini aniqlashga yordam beradi. Masalan: “oq yo'l” iborasi.

O'zbekcha matn (paragrafning bir qismi): U yo'lga chiqayotganda ota-onasi unga duo qilib oq yo'l tilashdi... Bu ibora o'zbek madaniyatiga xos ezgu tilak ifodasidir. Buni ingliz tiliga “white road” deb tarjima qilib bo'lmaydi.

Inglizcha parallel segment: As he left home, his parents blessed him and wished him good fortune. Bu yerda makrokontekst – oila, duo, safar oldidan tilak – semantik funksiyani to'liq tushunishga yordam beradi.

Emotsional-majoziy iboralarni talqin qilishda ham makrokontekst muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilidagi ko'plab emotsional birliklar ingliz tilida funksional tarzda tarjima qilinadi. Masalan, “ko'ngli qolmoq” iborasini ko'rib chiqamiz.

O'zbekcha matn: Do'stining xatti-harakati sabab uning ko'ngli qoldi. Gap darajasidagi mikrokontekst tarjimani noaniq qoldiradi. Makrokontekst (butun epizod, oldingi voqealar) esa “ranjish”, “xafa bo'lish” holatini ko'rsatadi.

Inglizcha tarjima: He was hurt by his friend's behavior. “ko'ngli qolmoq” so'zi kontekstga

qarab disappointed, offended, hurt, upset kabi turli variantlarda berilishi mumkin. To‘g‘ri variant keng kontekst orqali aniqlanadi.

Matnning asosiy g‘oyasiga qarab semantik o‘zgarishlar sodir bo‘lishi kuzatiladi. Ba‘zan bir so‘zning ma‘nosi butun paragrafning semantik yukiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, yorug‘ kunlar kabi ko‘chma ma‘noli birlikni ko‘rib chiqamiz.

O‘zbekcha matn: Og‘ir vaqtlar ortda qoldi, endi esa oldimizda yorug‘ kunlar bor. Agar makrokontekst e‘tiborga olinmasa, “bright days” deyish mumkin. Ammo matnning umumiy mazmuni bu iboraning metaforik – yorqin kelajak ma‘nosida ishlatilganini anglatadi.

Inglizcha mos ekvivalent: The hard times are over; better days lie ahead.

Makrokontekst tarjima transformatsiyasini talab qiladi. Ko‘p hollarda 1:1 leksik ekvivalent mavjud emas, makrokontekst tarjima strategiyasini tanlashda modifikatsiya, funksional ekvivalent, deskriptiv sharhlash, pragmatik kompensatsiya, adaptatsiya hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Masalan, uyatsizlik qilmang birikmasining ma‘nosi vaziyatga qarab o‘zgaradi. Keng kontekst – ota-onaning farzandga qilgan nasihati deb tasavvur qilsak, inglizcha mos ekvivalent quyidagicha bo‘ladi: Don’t bring shame on us. Bu ingliz madaniyati uchun tabiiy shakldagi mos tarjimadir.

1. U yig‘lamaslikka harakat qilib, o‘zini tutdi // She held herself together, trying not to cry.
2. Qishloqda hashar o‘tkazishdi // They organized community voluntary work in the village.
3. Bu xabarni eshitgach, uning yuragi orqaga tortdi // His heart sank when he heard the news.

Yuqoridagi misollar o‘zbek tilidagi ma‘no jihatdan murakkab birliklarning ingliz tiliga tarjima jarayonida qo‘llanilgan usullarni namoyish etadi. Frazelogik birlik (“o‘zini tutmoq”) emotsional kurash kontekstida ingliz tilidagi ekvivalent ibora “to hold oneself together” orqali ifodalanadi. Bu yerda tarjimon mazmuniy yaqinlik va emotsional funksiyani saqlagan holda mos frazeologik ekvivalentni tanlaydi. Madaniy realiya sifatida uchraydigan “hashar” termini esa ingliz tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri muqobili bo‘lmagani sababli “community voluntary work” tarzida funksional ekvivalent bilan beriladi. Bu strategiya madaniy hodisaning mohiyatini tushuntirishga qaratilgan bo‘lib, makrokontekst – umumiy ijtimoiy faoliyat – asosida tanlanadi. Shuningdek, konnotativ ibora bo‘lgan “yuragi orqaga tortdi” hissiy pasayishni bildiruvchi obrazli ifoda bo‘lib, ingliz tilida “his heart sank” shaklida tarjima qilinadi. Bu holatda tarjima semantik va emotsional moslikni ta‘minlaydi, chunki ikkala ibora ham bir xil hissiy reaksiyani ifodalaydi.

O‘zbek–ingliz parallel korpusida makrokontekst asosidagi semantizatsiyaning ahamiyati shundaki, makrokontekst polisemiyaning bartaraf etadi, to‘g‘ri ekvivalent tanlashga yordam beradi. Turg‘un iboralar va frazeologik birliklar aynan makrokontekst orqali anglanadi, madaniy realiyalar faqat keng matn doirasida to‘g‘ri talqin qilinadi. Emotsional, majoziy, pragmatik ma‘nolar makrokontekstga juda bog‘liq. Parallel korpus segmentlararo struktura va semantik izchillikni ko‘rsatib beradi. Shunday qilib, makrokontekst o‘zbek–ingliz til juftligida semantizatsiya jarayonining eng muhim qatlamlaridan biri bo‘lib, u tarjima aniqligi, ekvivalentlik tanlovi va semantik transformatsiyalarni ilmiy asoslashda hal qiluvchi o‘rin tutadi.

Aspekt	Mikrokontekst	Makrokontekst
Ta'rif	Soʻzning qurshovidagi birliklar (gap ichidagi lokal muhit).	Gaplar ketma-ketligi, paragraf, matnning umumiy mazmuni.
Koʻlam	3–7 ta soʻz oraligʻi, sintaktik boʻlaklar.	Paragraf, syujet, mavzu, kommunikativ vaziyat.
Asosiy vazifasi	Koʻp maʼnoli soʻzning aniq maʼnosini belgilash; kollokatsiyani aniqlash.	Metafora, konsept, realiya, pragmatik maʼno, yashirin maqsadni ochish.
Tahlil vositalari	Kollokatsiya, qoʻshimchalar, sintaktik bogʻlanishlar, yaqin semantik signallar.	Mavzu rivoji, mantiqiy bogʻliqlik, nutq maqsadi, madaniy kontekst.
Qaysi birliklarda ahamiyatli?	Feʼl, sifat, koʻp maʼnoli soʻzlar, iboralar.	Frazeologizmlar, metaforalar, madaniy realiyalar, emotsional birliklar.
Tarjima strategiyasi	Soʻzma-soʻz yoki yaqin leksik ekvivalent topish.	Funksional ekvivalent, adaptatsiya, kompensatsiya.
Xato ehtimoli	Kollokatsiya notoʻgʻri talqin qilinsa, xatolik kelib chiqadi	Konnotatsiya yoki madaniy maʼno eʼtibordan chetda qolsa, xatolik kelib chiqadi
Misol (soddalashtirilgan)	“ogʻir yuk” → <i>heavy load</i>	“ogʻir kunlar” → <i>hard times / dark days</i>
Natija	Leksik maʼno aniqlanadi.	Umumiy semantik va pragmatik maʼno aniqlanadi.

Mikro va makrokontekstda semantizatsiya

Ushbu jadval va misollar shuni koʻrsatadiki, mikrokontekst soʻzning aniq lugʻaviy maʼnosini belgilaydi, makrokontekst ibora yoki butun birlikning konseptual, metaforik, pragmatik maʼnosini aniqlaydi, parallel korpus har ikki kontekst darajasini birlashtirib, semantik talqinni ilmiy asos bilan taʼminlaydi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, lugʻaviy birliklarning maʼnosini aniqlash jarayoni faqat izohli lugʻatlar bilan emas, balki real korpus maʼlumotlari bilan bogʻlangan kontekstual tahlilga tayanishi zarur. Korpus asosida semantizatsiya qilish soʻzning chastotasi, kollokatsion bogʻlanishlari, sintaktik vazifasi va pragmatik yukini hisobga olish imkonini beradigan kompleks metod boʻlib, mazkur yondashuv polisemiyaning bartaraf etishda, maʼno differentsiatsiyasini aniq belgilashda va tarjima ekvivalentlarini aniqlashda yuqori samaradorlik koʻrsatadi. Mazkur paragrafda koʻrib chiqilgan komponent tahlil, distribusional yondashuv, frekventativ tahlil, kognitiv-semantik modellash va mikrokontekstdan makrokontekstgacha boʻlgan bosqichli semantik talqin metodlari oʻzbek va ingliz tillari oʻrtasidagi mazmuniy moslikni aniqlashda muhim ilmiy asos boʻlib xizmat qildi. Ayniqsa, oʻzbek tilining agglutinatativ xususiyati, erkin soʻz tartibi va milliy-madaniy konseptlarga boyligi soʻz maʼnosini kontekstga qatʼiy bogʻlash zaruratini koʻrsatdi. Ingliz tilidagi qatʼiy sintaktik struktura esa tarjimaviy ekvivalentlarni tanlashda sintaktik-funksional yondashuvni talab etadi. Tahlil shuni tasdiqlaydiki, parallel korpusda semantizatsiya jarayoni ikki tilli moslashgan segmentlar asosida amalga oshirilganda, soʻzning aniq maʼnosi ham mikrokontekst, ham makrokontekst orqali ishonchli ravishda aniqlanadi. Shu bilan birga, ayrim oʻzbekcha birliklar uchun toʻliq leksik ekvivalent mavjud boʻlmaganda, funksional ekvivalent yoki kompensator strategiyalar qoʻllanishi – maʼnoning nisbiy mosligini taʼminlashning samarali yoʻlidir.

Zero, tahlillar korpusga asoslangan semantizatsiya usullarining oʻzbek–ingliz tarjima jarayonida maʼno aniqligi va ekvivalentlik darajasini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga

ega ekanini ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv bobning keyingi bo‘limlarida frazeologik birliklar, idiomalar va realiyalar semantikasi bo‘yicha olib boriladigan tahlillar uchun mustahkam nazariy-metodik platforma yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baker, M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London: Routledge, 2011.
2. Biber, D. Representativeness in Corpus Design // Literary & Linguistic Computing. – 1993. – Vol. 8, No. 4. – P. 243–257.
3. 3. Elov, Botir & Abdullayeva, Oqila. (2024). O‘zbek tili korpusini sintaktik teglash masalasi. – 1-son.
4. 4. Ахмедова, Д.Б. Семантик разметка тизими ва модели // “Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar” respublika I ilmiy-texnikaviy konferensiyasi. – Toshkent, 2021-yil, 23-aprel. – B. 105–109;
5. Ахмедова Дилдора. Семантик разметка тизимида тег гуруҳлари // Oriental Art and Culture. – 2020. – №III. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/semantik-razmetka-tizimida-teg-guru-lari> (murojaat sanasi: 07.09.2025).
6. Catford, J. C. A Linguistic Theory of Translation. – Oxford: Oxford University Press, 1965.
7. Firth, J. R. Papers in Linguistics. – Oxford: Oxford University Press, 1957.
8. Gale, W., Church, K. A Program for Aligning Sentences in Bilingual Corpora // Computational Linguistics. – 1993. – Vol. 19, No. 1. – P. 75–102.
9. Halliday, M. An Introduction to Functional Grammar. – London: Edward Arnold, 1994.
10. Lakoff, G., Johnson, M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
11. Lakoff, G. The Contemporary Theory of Metaphor // Metaphor and Thought / ed. by A. Ortony. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 1993. – P. 202–251.
12. Langacker, R. W. Cognitive Grammar: A Basic Introduction. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – 562 p.
13. McEnery, T., Hardie, A. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012.
14. Nida, E. Componential Analysis of Meaning. – The Hague: Mouton, 1975.
15. Vinay, J.-P., Darbelnet, J. Stylistique comparée du français et de l’anglais. – Paris, 1958.